

**BOSHLANG‘ICH SINIF “TARBIYA” DARSLARIDA MILLIY-AXLOQIY
QADRIYATLARNI NARRATIV METOD ASOSIDA O‘RGATISH**

Qo‘shnazarova Nozima Maxmutjon qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nozima.0739@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21206210>

Annotatsiya. Tezisd boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida milliy qadriyatlarni o‘quvchilarning axloqiy tasavvuri, hissiy munosabati va kundalik xulqi bilan bog‘lashda narrativ metodning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Narrativning mazmuniy tuzilishi, hikoyani tanlash mezonlari, savol va topshiriqlar orqali axloqiy fikrlashni faollashtirish yo‘llari ochib berilgan. 2023-yilda nashr etilgan 3-sinf “Tarbiya” darsligidagi “Do‘pka voqeasi” mavzusi misolida milliy o‘zlik, tarixiy xotira va o‘ziga xoslik qadriyatlarini o‘rgatishning metodik ketma-ketligi taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, “Tarbiya” darsi, narrativ metod, milliy qadriyat, axloqiy tarbiya, hikoya, milliy o‘zlik, hissiy munosabat, “Do‘pka voqeasi”.

Boshlang‘ich ta’lim davrida bolaning yaxshilik, burch, vijdon, hurmat, mas’uliyat va mehr-oqibat haqidagi qarashlari aniq voqealar hamda insoniy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Bu yoshdagi o‘quvchi axloqiy tushunchani nazariy bilimlardan ko‘ra qahramonning boshidan kechirgan hodisasi, tanlovi, his-tuyg‘usi va xulosasi orqali tezroq anglaydi. Shu sababli “Tarbiya” darsida milliy qadriyatlarni hikoya, rivoyat, oilaviy xotira, tarixiy lavha va kundalik hayot voqealari orqali yoritish o‘quvchini mazmunning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Narrativ metodning ahamiyati ham qadriyatni shunchaki og‘zaki shaklda bayon qilishda emas, voqea orqali his etish, tahlil qilish va shaxsiy xulosaga kelish imkonini yaratishida ko‘rinadi.

R.A. Mavlonova tarbiyaviy jarayonning ta’lim mazmunidan ajralmasligini ta’kidlab, “O‘quvchilarga tarbiya berish ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi”, deb yozadi [1, 4-b.]. Ushbu fikr “Tarbiya” darsidagi hikoya oddiy badiiy bezak bo‘lib qolmasligi kerakligini ko‘rsatadi. Narrativ dars maqsadi, o‘rganilayotgan qadriyat, muhokama savollari va yakuniy amaliy topshiriq bilan ichki bog‘lanishga ega bo‘lgandagina tarbiyaviy natija yuzaga keladi. O‘quvchi hikoyani tinglabgina qolmay, undagi muammoni ko‘radi, qahramonning kayfiyatini tushunadi, xatti-harakatni baholaydi va voqeadan o‘z hayoti uchun ma’no chiqaradi.

Narrativ tushunchasi pedagogik jarayonda voqea va tajribaning mazmunli ketma-ketlikda bayon qilinishini anglatadi. J. Bruner inson borliqni tushinishda mantiqiy-ilmiy fikrlash bilan bir qatorda narrativ fikrlashdan ham foydalanishini asoslaydi. Narrativ fikrlash qahramonning niyati, yuzaga kelgan vaziyat, xatti-harakat va oqibat o‘rtasidagi bog‘lanishni anglashga yordam beradi [4]. Axloqiy tarbiya uchun bu jihat muhim, chunki bola “halollik”, “andisha” yoki “vatanparvarlik” so‘zlarining lug‘aviy ma’nosini bilishi mumkin, lekin ularning inson hayotidagi qiymatini voqea va munosabat doirasida chuqurroq tushunadi.

N.X. Voxidova, F.O. Mirzayeva va B.N. Saidova milliy tarbiya mazmunini xalqning tarixiy tajribasi, e’tiqodlari, g‘oyalari, an’analari, urf-odatlar va qarashlari bilan bog‘liq yaxlit pedagogik jarayon sifatida yoritadilar [2]. Bu yondashuvga ko‘ra, milliy qadriyatlar

darsda faqat ma’lumot sifatida sanab o’tilmaydi. Ularning insonning o’zligini anglashiga, yaqinlariga va jamiyatga munosabatiga, mas’uliyatli tanloviga ta’siri ochib beriladi. Narrativ metod xalqning ma’naviy tajribasini bolaning hozirgi hayoti bilan bog’laydigan qulay vosita hisoblanadi. Ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, hashar, mehmondo’sstlik, va’daga sadoqat, andisha va vatanparvarlik kabi qadriyatlar qahramonlar hayotidagi aniq holatlar orqali o’quvchi uchun tushunarli mazmun kasb etadi.

2023-yilda O.V. Usmanova va Y.V. Risyukova muallifligida nashr etilgan 3-sinf “Tarbiya” darsligi narrativ yondashuvni amaliy kuzatish uchun muhim manbadir. Darslik mualliflari kirish qismida topshiriqlar yordamida o’quvchilar “turli vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilishni, o’z his-tuyg’ularini, birovlarining quvonch va kechinmalarini his qilishni, tushunishni” o’rganishini qayd etadilar [3, 3-b.]. Ushbu maqsad narrativ metodning asosiy tarbiyaviy vazifalari bilan uyg’un keladi: voqea qahramonining holatini tushunish, sabab va oqibatni bog’lash, xatti-harakatga munosabat bildirish va shaxsiy xulosaga kelish.

Darslikdagi “Do’pka voqeasi” mavzusi milliy o’zlik va o’ziga xoslik qadriyatlarini narrativ asosda yoritishning aniq namunasi bo’la oladi. Voqeaning bosh qahramoni – sharqona naqshlar bilan bezatilgan Do’pka – o’zini boshqa bosh kiyimlar bilan taqqoslaydi, o’zidagi naqshlarning ma’nosini bilmagani uchun xafa bo’ladi va oddiy kepkalarga o’xshashni istaydi. Suhbat davomida unga o’z ildizini, tug’ilgan joyi tarixini va o’ziga xos jihatlarni bilish zarurligi tushuntiriladi. Hikoyaning keyingi qismida “har birimiz noyobmiz” degan g’oya ilgari surilib, insonning boshqalarga o’xshamasligi kamchilik sifatida talqin qilinmasligi ochib beriladi [3, 6–7-b.].

Mazkur mavzuni narrativ metod asosida o’qitish uchta o’zaro bog’langan yo’nalishda tashkil etilishi mumkin. *Birinchi yo’nalish* – voqeani tushunish va qahramon holatini his etish. O’qituvchi hikoyani ifodali o’qib beradi yoki o’quvchilarga rollar asosida o’qitadi. “Do’pka nega xafa bo’ldi?”, “U nima uchun oddiy kepkalarga o’xshashni xohladi?”, “Uning o’rnida bo’lganingizda nimalarni his qilardingiz?” kabi savollar voqeaning hissiy tomonini ochadi. Bu bosqichda o’quvchilarning qahramon holatini o’z so’zlari bilan ifodalashiga imkon beriishi ahamiyatlidir.

Ikkinchi yo’nalish – hikoyadagi milliy-axloqiy mazmunni aniqlash. O’quvchilar “ildiz”, “o’zlik”, “noyoblik”, “tug’ilgan joy tarixi” tushunchalarini voqea bilan bog’laydilar. O’qituvchi “Inson nima uchun tug’ilgan joyi tarixini bilishi kerak?”, “Boshqalarga o’xshamaslikning qaysi yaxshi tomonlari bor?”, “Milliy naqsh bizga qanday ma’no beradi?” kabi savollar orqali hikoyaning ichki g’oyasini ochishga yo’naltiradi. Darslikning o’zida ham Do’pkaning tashqi ko’rinishi, xafa bo’lish sababi va insonning o’z tarixi hamda yurti bilan tanish bo’lishi haqida savollar berilgan [3, 7-b.]. Bu savollarni kengaytirish narrativ muhokamaning ta’sirini oshiradi.

Uchinchi yo’nalish – hikoyadagi xulosani o’quvchining shaxsiy tajribasiga ko’chirish. Darslikda “O’zingiz tug’ilgan joy va uning tarixi haqida qisqa hikoya tayyorlang” topshirig’i berilgan [3, 7-b.]. Ushbu vazifani narrativ metod talablari asosida boyitish mumkin. O’quvchi ota-onasi yoki bobo-buvisi bilan suhbatlashib, mahalladagi qadimiy joy, oilaviy kasb, mashhur inson, milliy naqsh yoki avloddan-avlodga o’tib kelayotgan odat haqida qisqa hikoya tuzadi. Keyingi darsda bu hikoyalar tinglanadi va ularning qaysi qadriyatni ifodalashi aniqlanadi. Natijada milliy qadriyat o’quvchining oilaviy xotirasi bilan bog’lanadi.

Narrativ muhokamada o’qituvchi voqea mazmuni va qahramonning holati yuzasidan o’quvchilarning fikri tinglanadi, so’ng dalillar aniqlashtiriladi. “Do’pka o’z naqshlarini bilmaganida nima yo’qotardi?”, “U boshqalarga o’xshab qolganida o’zini baxtli his

qilarmidi?”, “O’zligidan faxrlanish boshqalarni kamsitish deganimi?” kabi savollar o’quvchini masalaning turli tomonlarini ko’rishga o’rgatadi. Oxirgi savol ayniqsa muhim: milliy g’urur boshqa xalqlar va madaniyatlarga hurmat bilan uyg’un bo’lishi lozim.

C. Hunter va D. Eder bolalarning axloqiy qarorlarini tushunishda hikoya aytish va hikoyani jamoaviy muhokama qilish muhim imkoniyat yaratishini ko’rsatadilar [5, 223–228-b.]. Hikoya muhokamasida bola faqat qahramonga baho bermaydi; u o’z tajribasini, oila va tengdoshlari bilan bog’liq kuzatuvlarini ham suhbatga olib kiradi. “Do’pka voqeasi”ni o’rganishda o’quvchilardan milliy kiyim yoki buyum bilan bog’liq oilaviy xotirani so’rash, “Men uchun Vatanimni eslatadigan buyum” mavzusida og’zaki hikoya tuzdirish shu imkoniyatni kuchaytiradi.

L. Gasser, Y. Dammert va P.K. Murphy bolalarning badiiy narrativdan ijtimoiy-axloqiy mazmunni o’zlashtirishida uch jihatga e’tibor qaratadilar: voqeadagi g’oyani anglash, qahramon nuqtayi nazarini tasavvur qilish va hikoyani dialogik muhokama etish [6, 1445–1475-b.]. “Tarbiya” darsida ham narrativ matn o’qib bo’lingach faqat mazmunni qayta so’zlatish yetarli natija bermaydi. Qahramon nima uchun shunday o’ylagani, uning fikri qachon va nima sababdan o’zgargani, o’quvchi voqeaning qaysi qismiga qo’shilishi yoki qo’shilmasligi muhokama qilinishi zarur. Shunda hikoya axloqiy fikrlash, empatiya va mulohazali munosabatni rivojlantiruvchi vositaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, narrativ metod boshlang’ich sinf “Tarbiya” darsida milliy qadriyatni voqea, qahramon, hissiy kechinma va shaxsiy xulosa orqali o’zlashtirish imkonini beradi. U o’quvchini inson xatti-harakatining sababi va oqibatini tushunishga, boshqa kishining holatini his etishga, milliy tajribani o’z hayoti bilan bog’lashga yo’naltiradi. 2023-yilgi 3-sinf “Tarbiya” darsligidagi “Do’pka voqeasi” milliy o’zlik, tarixiy xotira, Vatanga daxldorlik va o’ziga xoslikni hurmat qilish g’oyalarini narrativ shaklda ochib berishi bilan metodik jihatdan qimmatli. Hikoyani ifodali o’qish, qahramon holatini tahlil qilish, savollar orqali qadriyat mazmunini aniqlash va oilaviy hikoya tuzish bilan yakunlash darsning tarbiyaviy ta’sirini oshiradi. Natijada milliy qadriyat o’quvchining xotirasida uning o’zini anglashi va kundalik munosabatlarini boshqaradigan ichki mezon sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Normurodova B.A., Matnazarova K.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: darslik. – Toshkent, 2014. – 256 b.
2. Mirzayeva F.O., Voxidova N.X., Saidova B.N. Milliy tarbiya asoslari: o’quv qo’llanma. – Toshkent: NIF MSH, 2023. – 416 b.
3. Usmanova O.V., Risyukova Y.V. Tarbiya. 3-sinf: darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 104 b.
4. Bruner J.S. Actual Minds, Possible Worlds. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986.
5. Hunter C., Eder D. The Role of Storytelling in Understanding Children’s Moral/Ethic Decision-Making // Multicultural Perspectives. – 2010. – Vol. 12, No. 4. – P. 223–228.
6. Gasser L., Dammert Y., Murphy P.K. How Do Children Socially Learn from Narrative Fiction: Getting the Lesson, Simulating Social Worlds, or Dialogic Inquiry? // Educational Psychology Review. – 2022. – Vol. 34. – P. 1445–1475.